

Avstriya Federal Hukumati
bilan
O‘zbekiston Respublikasi Hukumati
o‘rtasida
migratsiya va mobillik bo‘yicha sheriklik to‘g‘risida
BITIM

AVSTRIYA FEDERAL HUKUMATI

va

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUKUMATI,

Keyingi o‘rinlarda “Tomonlar” deb ataluvchilar;

Tomonlar o‘rtasidagi tarixiy do‘stlik va hamkorlik aloqalarini e‘tiborga olib;

2001-yil 2-noyabrda imzolangan O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Avstriya Respublikasi Federal Hukumati o‘rtasida xavfsizlik va jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik qilish to‘g‘risidagi Bitimga, shuningdek, 1997-yil 11-fevralda imzolangan Noqonuniy migratsiya, migrantlarni noqonuniy olib kirish va odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha Anglashuv memorandumiga binoan Tomonlar o‘rtasida xavfsizlik sohasidagi do‘stona ikki tomonlama hamkorlikni inobatga olib;

Malakali ishchilarni axloqiy jihatdan mas‘uliyatli yollash bo‘yicha xalqaro tamoyillarga rioya etish va rivojlanishga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xodimlarni “og‘dirib olish” holatlarining oldini olishga intilib;

Migratsiyaning barcha bosqichlarida inson huquqlari va kamsitmaslik tamoyiliga rioya etilishi zarurligini, migrantlarning ehtiyojlari va ularning turli tajribalarini inobatga olish lozimligini, shuningdek, gender tengligi hamda barcha ayollar va qizlarning mustaqilligi, salohiyati va yetakchiligini rag‘batlantirishga doir tamoyillarni e‘tirof etib;

Xalqaro mehnat tashkilotining “Adolatli yollash bo‘yicha umumiy tamoyillar va operativ qo‘llanma”sini ilgari surish, xususiy sektorda adolatli, axloqiy va barqaror yollashni ta‘minlash, shuningdek, o‘z mamlakatlaridagi manfaatdor tomonlarni qonuniy tan olingan sifat belgilari to‘g‘risida xabardor qilish istagidan kelib chiqib;

Tomonlar o‘rtasida mehnat migratsiyasini rag‘batlantirish va osonlashtirish istagi bilan harakat qilib;

Migratsiya va migratsiya siyosati bo‘yicha sheriklik ruhidagi hamkorlik ikki mamlakat va ularning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalari uchun foyda keltirishini inobatga olib;

Insonlar o'rtasidagi aloqalar va migratsiya oqimlari xalqlarni yaqinlashtirishini, mobillikni sheriklik asosida boshqarish har ikki davlat uchun iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish omili bo'lishini qat'iy ishonch bilan qayd etib;

Xalqaro huquq va milliy qonunchilikka muvofiq, noqonuniy migratsiya, migrantlarni noqonuniy olib kirish va odam savdosiga qarshi kurashish yo'nalishida birgalikda tegishli chora-tadbirlarni ko'rishga intilib;

Migratsiya oqimlarini boshqarish bo'yicha ilg'or, amaliy va samarali yechimlarni aniqlashda birgalikdagi sa'y-harakatlarni kuchaytirish niyatini bildirib;

Ikkinchi Tomon hududiga kirish yoki unda yashash shartlarini bajarmagan yoki bajarishni to'xtatgan shaxslarni aniqlash va qaytarishning tezkor va samarali tartib-taomillarini joriy etish hamda bunday shaxslarni qaytarishni hamkorlik ruhida osonlashtirish istagidan kelib chiqib;

O'zlarining milliy qonunchiliklari, Yevropa Ittifoqi qonunchiligi, shuningdek, tegishli xalqaro shartnomalar va konvensiyalarda nazarda tutilgan huquq va kafolatlarga rioya qilgan holda;

Malakali ishchilarni yangi hayotga tayyorlash maqsadida tegishli Tomon hududida (onlayn) o'quv dasturlari, xususan, mehnat bozori, mehnat huquqlari va diplom hamda malakalarni tan olishning mumkin bo'lgan yo'llari to'g'risida umumiy (onlayn) ma'lumotlarni taqdim etish zaruriyatini tan olgan holda;

Quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar:

1-modda

Bitimning qo'llanish doirasi

Mazkur Bitimning maqsadlari Tomonlar o'rtasida quyidagi sohalarida hamkorlikni o'rnatish va rivojlantirishdan iborat:

- Avstriya Respublikasi yoki O'zbekiston Respublikasida mehnat faoliyatini amalga oshirishni maqsad qilgan malakali ishchilarning adolatli mobilligini rag'batlantirish;
- har ikki Tomon fuqarolarining mobilligini osonlashtirish maqsadida tegishli tartib-taomillar bo'yicha axborot almashishni rag'batlantirish;
- har ikki Tomon fuqarolarining haq to'lanadigan mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida uzoq muddatli yashashini rag'batlantirish;
- noqonuniy migratsiya va migrantlarni noqonuniy olib kirishga qarshi kurashish;
- mehnat ekspluatatsiyasi, majburiy mehnat va odam savdosinining oldini olish va unga qarshi kurashish, shuningdek jabrlanuvchilarni himoya qilish;
- O'zbekiston Respublikasi yoki Avstriya Respublikasi fuqarolarini, ular ikkinchi Tomon hududida kirish yoki yashash shartlarini bajarmagan yoki bajarishni to'xtatgan bo'lsa, qaytarishni osonlashtirish; va
- Migratsiya, mobillik va readmissiya masalalari bo'yicha Qo'shma ishchi guruhni tuzish.

2-modda

Qisqa muddatli ko'p martalik vizalar

1. Tomonlar, o'zlarining tegishli majburiyatlariga muvofiq hamda milliy va Yevropa Ittifoqi qonunchiligi doirasida, boshqa Tomon fuqarolariga chet elliklarning kirishi, bo'lishi va ishlashi bo'yicha belgilangan talablarga javob bergan taqdirda, qisqa muddatli, ko'p martalik vizalarni rasmiylashtiradilar.
2. Bunday fuqarolarga, shu jumladan, quyidagi toifadagi shaxslar kiradi: malakali ishchilar, biznes maqsadlarida tashrif buyuruvchilar, akademiklar, olimlar, tadqiqotchilar, ziyolilar, mutaxassislar va sportchilar.
3. Avstriya Tomoni uchun, Shengen qonunchiligi bazasi talablarini to'liq qo'llagan holda, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar hududida har 180 (bir yuz sakson) kunlik davr ichida 90 (to'qson) kundan oshmaydigan rejalashtirilgan bo'lish muddatiga vizalar berish tartib-taomillari va shartlarini, shuningdek, 5 (besh) yilgacha amal qilish muddatiga ega ko'p martalik vizalar berish shartlarini belgilovchi, Yevropa Parlamenti va Kengashining vizalar bo'yicha Jamiyat Kodeksini (Viza Kodeksi) belgilagan 810/2009-sonli (EK) Reglamenti (OJ L 243, 15.9.2009, 1-bet) huquqiy jihatdan majburiy kuchga ega hisoblanadi.
4. O'zbekiston Tomoni, amaldagi milliy qonunchilikka muvofiq, bunday ko'p martalik vizalarni, har bir tashrifda 6 (olti) oygacha bo'lish huquqini beruvchi, amal qilish muddati 1 (bir) yildan 3 (uch) yilgacha bo'lgan, osonlashtirilgan tartibda berishni ijobiy ko'rib chiqishga tayyorligini bildiradi. Ushbu vizalarning amal qilish muddati taqdim etilgan hujjatlarga, O'zbekiston Respublikasida rejalashtirilgan faoliyatning davomiyligiga va pasportning amal qilish muddatiga bog'liq holda belgilanadi.

3-modda

Talabalarni qabul qilish

Har ikki Tomon amaldagi milliy va Yevropa Ittifoqi qonunchiligi doirasida tan olingan oliy ta'lim muassasasida ro'yxatdan o'tgan hamda O'zbekistonda yoki Avstriyada o'qishni boshlashni yoki davom ettirishni istagan talabalarni almashinuvni amalga oshirish orqali o'zbek-avstriya hamkorligini mustahkamlash majburiyatini oladilar. Shu maqsadda, talabalar uchun yashash ruxsatnomasi hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga tan olingan oliy ta'lim muassasalarida tahsil olish maqsadida vaqtincha yashash imkonini beradi.

4-modda

Talabalar almashinuvi

1. Tomonlar, amaldagi milliy va Yevropa Ittifoqi qonunchiligi doirasida, O'zbekiston yoki Avstriyada o'qishni davom ettirish istagida bo'lgan va tan olingan oliy ta'lim muassasasiga ro'yxatdan o'tgan talabalar mobilligini mamnuniyat bilan qabul qiladilar.

2. Avstriya Tomoni “Study in Austria” (<https://studyinaustria.at/en/>) veb-sayti orqali O‘zbekiston Tomoniga talabalar almashuvi bo‘yicha imkoniyatlar, shuningdek, milliy va Yevropa Ittifoqi moliyalashtiradigan loyihalar doirasida stipendiya oluvchilar uchun mavjud dasturlar haqida ma’lumot beradi.
3. Tomonlar talabalar uchun kirish va yashash shartlari to‘g‘risida bir-birini muntazam ravishda xabardor qilishga intiladilar.
4. Tomonlar oliy ta’lim sohasidagi hamkorlikni tegishli ma’lumotlar almashuvi orqali rag‘batlantiradilar.

5-modda

Mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida migratsiya

1. Tomonlar o‘zlarining chet elliklar kirishi, yashashi va mehnat faoliyatini amalga oshirishiga oid tegishli qoidalariga muvofiq ikkala davlat o‘rtasida malakali ishchilarning xavfsiz, tartibli va qonuniy mobilligini rag‘batlantirish majburiyatini oladilar hamda shu maqsadda, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida ish beruvchilar va ishchilar tashkilotlari o‘rtasida aloqalar o‘rnatish va bilim almashuvini ta’minlash uchun qulay sharoitlar yaratadilar, shuningdek, jo‘nab ketishdan oldin mavjud onlayn va raqamli axborot hamda integratsiya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etadilar.
2. Avstriya Tomoni amaldagi kirish, yashash va mehnat faoliyatini amalga oshirish qoidalariga muvofiq, malakali o‘zbekistonlik ishchilar uchun Avstriya mehnat bozoriga kirish bo‘yicha keng imkoniyatlar mavjudligini qayd etadi.
3. Tomonlar davlat agentliklari (O‘zbekiston Respublikasida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi; Avstriya Hukumatining Avstriya biznes agentligi (ABA – Work in Austria Services)) faoliyatining ahamiyatini e’tirof etadilar. Malakali ishchilar uchun Avstriya Biznes Agentligi (ABA) avstriya biznes joylashuvini maslahat idorasi sifatida o‘zining www.workinaustria.com axborot platformasida immigratsiya tizimi to‘g‘risida Immigratsiya bo‘yicha qo‘llanma (Immigration Guide), butun mamlakat bo‘ylab faoliyat yurituvchi “Talent Hub” ish platformasi va Avstriyada ishlash va yashash haqida shaxsiy ma’lumotlar taqdim etuvchi “Personal Guide” kabi raqamli vositalarni o‘z ichiga olgan holda keng qamrovli ma’lumotlarni taklif etadi. Shuningdek, Avstriya biznes agentligi ish taklifiga ega bo‘lgan malakali ishchilar, ularning oila a’zolari va kelajakdagi ish beruvchilariga migratsiya va yashash tartib-taomillari bo‘yicha shaxsiy maslahat xizmatini taklif etadi. Mazkur agentlik hukumat tashkiloti sifatida barcha xizmatlarni bepul taqdim etadi. Ushbu modda bilan qamrab olingan shaxslar, milliy va Yevropa Ittifoqi qonunchiligiga muvofiq, mehnat shartlari, ijtimoiy sug‘urta, sog‘liqni saqlash, gigiyena, mehnat xavfsizligi kabi sohalarda mezbon davlat fuqarolari bilan teng munosabatlardan foydalanadilar. Ularning ish beruvchilari ularga mezbon davlat fuqarolari bilan bir xil sharoitlarda kamida shu darajadagi ish haqini to‘lashlari shart.
4. Tomonlar boshqa Tomonning fuqarosi bo‘lgan malakali ishchilar tarafidan jo‘nab ketishdan oldin mavjud tayyorlov va integratsiya xizmatlaridan foydalanilishini mamnuniyat bilan qabul qiladilar.

6-modda

Bandlik shartlari va ijtimoiy ta'minot

1. Ishga joylashish shartlari va mehnat sharoitlari, shu jumladan, ish haqi, ishdan bo'shatish, ish vaqti, ta'til, bayram kunlari va gender tengligi, shuningdek, mehnat salomatligi va xavfsizligi mezbon davlatning amaldagi qonunchiligi, shu jumladan, xalqaro xususiy huquq normalari bilan tartibga solinadi.
2. Ishchilarning ijtimoiy ta'minoti mezbon davlat qonunchiligi hamda Tomonlar ishtirok etadigan xalqaro shartnomalarga muvofiq ta'minlanadi.
3. Ishchilarning pensiya ta'minoti masalalari Tomonlar davlatlarining qonunchiligi hamda Tomonlar o'rtasida tuzilgan alohida xalqaro shartnomalar bilan tartibga solinadi.
4. Ishchilar tegishli davlatlarda amaldagi qonunchilikka muvofiq huquqiy himoyadan foydalanadilar. Bu ularga yetkazilgan zararni undirish uchun ish beruvchilarga qarshi da'vo qo'zg'atish imkoniyatini ham o'z ichiga oladi.

7-modda

Kasbiy ta'lim va malaka oshirish sohasida hamkorlik

1. Tomonlar kasbiy ta'lim va malaka oshirish sohasida hamkorlik qilishga tayyor ekanliklarini bildiradilar va O'zbekiston-Avstriya hamkorligi O'zbekiston Tomonining innovatsion malaka rivojlantirish va kasbiy ta'lim tizimini shakllantirishdagi sa'y-harakatlarini ilgari surishini ta'kidlaydilar.
2. Mazkur hamkorlik, xususan, quyidagi faoliyatlarni o'z ichiga olishi mumkin:
 - a. Tomonlar o'zlarida mavjud bo'lgan kasbiy ta'lim va malaka oshirish tizimlari haqidagi axborot almashinuvi;
 - b. Tomonlar mas'ul organlari o'rtasida rasmiy va ekspert darajasidagi maslahatlashuvlarni o'tkazish;
 - c. O'zbekiston hududida dual kasbiy ta'lim tizimi hamda yangi, innovatsion va barqaror texnologiyalar sohasida malaka rivojlantirishga qaratilgan ehtimoliy qo'shma loyihalarni tayyorlash va ishlab chiqish masalalarini muhokama qilish;
 - d. Maxsus masalalar bo'yicha o'quv tashriflarini va seminarlarni tashkil etish.
3. Avstriya Tomoni O'zbekistonda dual kasbiy ta'lim va malaka oshirishni rivojlantirishga bo'lgan o'zining davomiy majburiyatini qayd etadi va O'zbekistonning kasbiy hamda akademik malakalarini o'zaro tan olishning muhimligini ta'kidlaydi. Xususan, Avstriya Tomoni ikkala davlat o'rtasida malakali ishchilar mobilligini osonlashtirish maqsadida Milliy malaka doiralarini solishtirish, shuningdek, tasdiqlash va sertifikatlash tuzilmalarini taqqoslash yo'lidagi sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi.

8-modda

Oila a'zolari

1. Amaldagi milliy va Yevropa Ittifoqi qonunchiligiga muvofiq, turmush o'rtoqlar hamda ularning voyaga yetmagan turmush qurmagan farzandlari, tegishli qonunchilikda nazarda tutilgan shartlar asosida, kasbiy faoliyatni amalga oshirish imkonini beruvchi yashash ruxsatnomasi olish huquqiga ega bo'ladilar.
2. Yashash uchun ruxsatnomaning aniq turiga bog'liq ravishda, til bilimiga qo'yiladigan talab mavjud bo'lishi mumkin. Amaldagi milliy va Yevropa Ittifoqi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda til talabi bekor qilinishi mumkin.
3. Tomonlar malakali ishchilarning oila a'zolari uchun jo'nab ketishdan oldin mavjud integratsiya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini davom ettirib taqdim etish majburiyatini oladilar, bunda ushbu xizmatlar tegishli yashash ruxsatnomasini olish uchun zarur ko'nikmalarni egallash va hujjatlarni olishda oila a'zolarining o'z shaxsiy tashabbusini ko'rsatishini talab qiladi.

9-modda

Tadqiqotchilar va doktorantlar

1. Tomonlar, amaldagi milliy qonunchilik, Avstriya Tomoni uchun Yevropa Ittifoqi qonunchiligi doirasida, tegishli shartnoma yoki stipendiyaga ega bo'lgan tadqiqotchilar va doktorantlarning ikki davlat o'rtasidagi mobilligini qo'llab-quvvatlaydilar.
2. O'zbekiston Tomoni uchun Avstriyada tadqiqotchilar va doktorantlar uchun amal qiladigan tartiblar va talablarga doir ma'lumotlar "Study in Austria" (<https://studyinaustria.at/en/>) hamda <https://www.euraxess.at/> veb-saytlari orqali taqdim etiladi.

10-modda

Chegara boshqaruvi sohasida tajriba almashish

1. Tomonlar chegara boshqaruvi bo'yicha keng qamrovli tajriba almashinuvini yo'lga qo'yadilar.
2. Ta'lim maqsadlarida Tomonlar eng yaxshi amaliyotlarni bo'lishadilar va o'quv mashg'ulotlari hamda o'quv tashriflarida o'zaro ishtirok etish imkoniyatini yaratadilar.
3. Tomonlar ushbu sohada tegishli texnik yangiliklar va ularning amaliy qo'llanilishi to'g'risida axborot almashadilar.

11-modda

Noqonuniy migratsiya, migrantlarni noqonuniy olib kirish va odam savdosiga qarshi kurash

1. Tomonlar O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Avstriya Respublikasi Federal Hukumati o'rtasida xavfsizlik va jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik qilish to'g'risidagi Bitim asosida noqonuniy migratsiya, migrantlarni noqonuniy olib kirish, odam savdosi, shaxsni tasdiqlovchi va sayohat hujjatlari sohasidagi firibgarlikka qarshi kurashda tajriba almashish va salohiyatni mustahkamlash, shuningdek, o'zaro tashriflar orqali bu sohadagi hamkorlikni kuchaytirish maqsadida birgalikdagi harakatlar dasturini ishlab chiqadilar.

2. Shaxsni tasdiqlovchi va sayohat hujjatlari sohasidagi firibgarlikka qarshi kurash borasida har ikki Tomon profilaktika natijalari, yangi tendensiyalar, soxta hujjatlarning tarqalishi va aniqlanishiga oid ma'lumotlar almashinuvini, shuningdek, qalbaki va soxtalashtirilgan hujjatlarga qarshi kurashish uchun hujjatlar namunalari almashinuvini rag'batlantiradilar hamda qalbaki va soxtalashtirilgan hujjatlarni aniqlash bo'yicha maxsus sohalarda mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydilar.

12-modda

Tomonlarning o'z fuqarolarini qaytarish va readmissiyasi

1. So'ralayotgan Tomon, So'rayotgan Tomonning mazkur Bitim doirasida berilgan arizasiga binoan, So'rayotgan Tomon davlatining hududiga kirish, unda bo'lish yoki unda yashash shartlarini bajarmagan yoki bajarishni to'xtatgan barcha shaxslarni, basharti bunday shaxs So'ralayotgan Tomon fuqarosi ekanligi aniqlangan taqdirda hamda mazkur Bitimda nazarda tutilganlardan boshqa qo'shimcha rasmiyatchiliklarsiz, o'z davlati hududiga qayta qabul qiladi.

2. Tomonlar tegishli shaxsning o'z irodasidan qat'i nazar, qaytarish va readmissiyani qabul qilishga va qo'llab-quvvatlashga rozilik bildiradilar.

3. Har ikki Tomon, basharti shaxsning boshqa Tomonga qaytarilishini izdan chiqaruvchi sabablar mavjud bo'lmasa, ixtiyoriy qaytarishlarga ustuvor ahamiyat beradilar. Har ikki Tomon ixtiyoriy qaytish va reintegratsiya dasturlarini qo'llab-quvvatlaydilar.

13-modda

Uchinchi davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni readmissiya qilish

1. Tomonlar uchinchi davlat fuqarosi, qoida tariqasida, u qaysi davlatning fuqarosi bo'lsa, shu davlatga readmissiya qilinishi lozim, degan tamoyildan kelib chiqadilar.

2. Shuningdek, Tomonlar fuqaroligi bo'lmagan shaxs u doimiy yashash joyiga ega bo'lgan davlatga yoki unga sayohat hujjatini bergan davlatga qaytarilishi lozim, degan tamoyildan kelib chiqadilar.

3. So'ralayotgan Tomon, So'rayotgan Tomonning arizasiga binoan va mazkur Bitim doirasida, So'rayotgan Tomon davlatining hududiga kirish, unda bo'lish yoki unda yashash shartlarini bajarmagan yoki bajarishni to'xtatgan har qanday uchinchi davlat fuqarosini yoki fuqaroligi

bo'lmagan shaxsni, basharti bunday shaxsga oid quyidagi holatlardan biriga doir dalillar taqdim etilgan taqdirda, o'z davlati hududiga qayta qabul qiladi:

- a. tegishli shaxs So'ralayotgan Tomon davlatining hududida bo'lgan yoki ushbu davlat hududi orqali tranzit o'tgan holda So'rayotgan Tomon davlatining hududiga noqonuniy va bevosita kirgan bo'lsa; yoki
- b. readmissiya to'g'risidagi ariza topshirilgan paytda tegishli shaxs So'ralayotgan Tomon tarafidan berilgan yashash ruxsatnomasiga yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun sayohat hujjatiga ega bo'lsa; yoki
- c. readmissiya to'g'risidagi ariza topshirilgan paytda tegishli shaxs So'ralayotgan Tomon tarafidan berilgan amaldagi vizaga ega bo'lsa va So'rayotgan Tomon hududiga So'ralayotgan Tomon hududidan bevosita kirgan bo'lsa.

4. Mazkur moddaning 1-bandidagi readmissiya majburiyati qo'llanilmaydi, basharti:

- a. uchinchi davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs So'ralayotgan Tomon davlatining hududidagi xalqaro aeroportning faqat tranzit zonasida bo'lgan bo'lsa; yoki
- b. So'rayotgan Tomon uchinchi davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsga o'z davlati hududiga kirishidan oldin yoki keyin viza yoki vaqtinchalik yashash ruxsatnomasini bergan bo'lsa, bundan quyidagi holatlar mustasno:
 - i. tegishli shaxs So'ralayotgan Tomon tarafidan berilgan, amal qilish muddati uzoqroq bo'lgan vizaga yoki yashash ruxsatnomasiga ega bo'lsa; yoki
 - ii. So'rayotgan Tomonning vizasi yoki yashash ruxsatnomasi qalbaki yoki soxtalashtirilgan hujjatlar yordamida yoxud yolg'on bayonotlar asosida olingan bo'lsa; yoki
 - iii. tegishli shaxs vizani olish uchun belgilangan talablarga javob bermasa.

5. So'ralayotgan Tomon tarafidan berilgan ijobiy javob olingandan so'ng, So'rayotgan Tomon readmissiyasi qabul qilingan shaxsga So'ralayotgan Tomon tarafidan tan olinadigan sayohat hujjatini rasmiylashtiradi.

14-modda

Readmissiya to'g'risidagi ariza

1. Mazkur moddaning 2-bandiga daxl qilmagan holda, mazkur Bitimning 12 va 13-moddalarida nazarda tutilgan majburiyatlardan biriga asosan readmissiya qilinishi lozim bo'lgan shaxsni topshirish So'rayotgan Tomonning So'ralayotgan Tomonning vakolatli organiga yozma ravishda readmissiya to'g'risidagi ariza yuborishini talab etadi.

2. Basharti readmissiya qilinishi lozim bo'lgan shaxs So'ralayotgan Tomon fuqarosi bo'lsa va amaldagi sayohat hujjati yoki shaxsni tasdiqlovchi hujjatga ega bo'lsa, readmissiya to'g'risidagi ariza yuborish talab qilinmaydi.

3. Readmissiya to'g'risidagi ariza, xususan, quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- a. readmissiya qilinishi lozim bo'lgan shaxsning barcha mavjud ma'lumotlari;

- b. mazkur Bitimning 15 yoki 16-moddalariga muvofiq dalillar;
 - c. zarur hollarda, readmissiya to‘g‘risidagi ariza, shuningdek, topshirilishi lozim bo‘lgan shaxs yordamga yoki tibbiy parvarishga muhtoj bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatuvchi bayonotni o‘z ichiga olishi kerak.
4. Mazkur moddaga muvofiq readmissiya to‘g‘risidagi ariza mazkur Bitimga 5-ilova sifatida biriktirilgan namuna bo‘yicha taqdim etiladi.

15-modda

Fuqarolikni tasdiqlovchi dalillar va readmissiya tartib-taomillari

1. Mazkur Bitimning 12-moddasida nazarda tutilgan fuqarolik ushbu Bitimning 1-ilovasida ko‘rsatilgan hujjatlardan kamida bittasi taqdim etilishi orqali aniqlanishi mumkin. Basharti bunday hujjatlar taqdim etilsa, Tomonlar fuqarolikni ushbu Bitimda nazarda tutilganlardan tashqari boshqa rasmiyatchiliklarsiz o‘zaro tasdiqlaydilar.
2. Basharti mazkur Bitimning 1-ilovasida ko‘rsatilgan hujjatlardan hech biri taqdim etilmasa, mazkur Bitimning 12-moddasiga muvofiq fuqarolik mazkur Bitimga 2-ilovada ko‘rsatilgan hujjatlardan kamida bittasi orqali, amal qilish muddati tugagan bo‘lishiga qaramasdan, aniqlanishi mumkin. Bunday hujjatlar taqdim etilgan taqdirda, Tomonlar fuqarolikni aniqlangan deb hisoblaydilar, basharti bundan aks hol isbotlanmaguncha.
3. Fuqarolik qalbaki hujjatlar asosida tasdiqlanishi mumkin emas.
4. Basharti ushbu Bitimning 1 yoki 2-ilovalarida ko‘rsatilgan hujjatlar taqdim etilmasa, So‘ralayotgan Tomonning diplomatik yoki konsullik vakolatxonasi, readmissiya to‘g‘risidagi ariza kelib tushganidan so‘ng, shaxsning fuqaroligini aniqlash maqsadida darhol shaxsiy suhbat (intervyu) o‘tkazadi. Tomonlarning o‘zaro roziligi bilan intervyu masofaviy vositalar orqali ham o‘tkazilishi mumkin.
5. So‘ralayotgan Tomonning vakolatli organlari readmissiya to‘g‘risidagi arizalarga bunday ariza topshirilgan kundan boshlab 30 (o‘ttiz) kalendar kundan kechiktirmay, har qanday aloqa vositalari, shu jumladan, elektron vositalar orqali yozma ravishda tezkorlik bilan javob beradilar.
6. Fuqarolik aniqlangandan so‘ng, diplomatik yoki konsullik vakolatxonasi sayohat hujjatini 7 (yetti) kalendar kun ichida bepul rasmiylashtiradi va mazkur sayohat hujjati faqat tegishli Tomon hududiga sayohat qilish uchun ishlatiladi. Basharti vakolatli diplomatik yoki konsullik vakolatxonasi sayohat hujjatini 7 (yetti) kalendar kun ichida rasmiylashtirmasa, u “Qaytarish uchun Yevropa sayohat hujjati”ni qabul qilgan deb hisoblanadi.
7. Sayohat hujjati kamida 6 (olti) oy amal qilishi lozim va uning amal qilish muddati tugagan taqdirda, sayohat hujjati so‘rov olinganidan boshlab kamida 7 (yetti) kalendar kun ichida kechiktirmasdan xuddi shu amal qilish muddati bilan yangilanadi. Basharti vakolatli diplomatik yoki konsullik vakolatxonasi sayohat hujjatini 7 (yetti) kalendar kun ichida yangilamasa, u “Qaytarish uchun Yevropa sayohat hujjati”ni qabul qilgan deb hisoblanadi.

16-modda

Uchinchi davlat fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni readmissiya qilish uchun dalillar va tartib-taomillari

1. Mazkur Bitimning 13-moddasiga muvofiq uchinchi davlat fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni readmissiya qilish uchun asoslar mazkur Bitimning 3-ilovasida ko‘rsatilgan hujjatlardan kamida bittasi orqali tasdiqlanishi mumkin. Bunday dalillar taqdim etilgan taqdirda, readmissiya uchun asoslar Tomonlar tarafidan mazkur Bitimda nazarda tutilganlardan boshqa qo‘shimcha rasmiyatchiliklarsiz o‘zaro tan olinadi.
2. Mazkur Bitimning 13-moddasiga muvofiq uchinchi davlat fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni readmissiya qilish uchun asoslar mazkur Bitimning 4-ilovasida ko‘rsatilgan hujjatlardan kamida bittasi orqali bilvosita dalillar bilan tasdiqlanishi mumkin. Bunday dalil vositalari taqdim etilgan taqdirda, Tomonlar ushbu asoslarni aniqlangan deb hisoblaydilar, basharti bundan aks hol isbotlanmaguncha.
3. Readmissiya asoslari qalbaki hujjatlar asosida tasdiqlanishi mumkin emas.
4. Basharti taqdim etilgan dalillar qaytarish va readmissiyani amalga oshirish uchun yetarli bo‘lmasa, So‘ralayotgan Tomonning tegishli diplomatik yoki konsullik vakolatxonasi ushbu shaxs bilan bevosita suhbat o‘tkazadi. So‘ralayotgan va So‘rayotgan Tomonlarning o‘zaro roziligi bilan suhbatlar masofaviy aloqa vositalari orqali ham o‘tkazilishi mumkin.
5. So‘ralayotgan Tomonning vakolatli organlari readmissiya to‘g‘risidagi arizalarga bunday ariza topshirilgan kundan boshlab 30 (o‘ttiz) kundan kechiktirmay, har qanday aloqa vositalari, shu jumladan, elektron vositalar orqali yozma ravishda tezkorlik bilan javob beradilar. Mazkur Bitimning 13-moddasida belgilangan shartlar bajarilganligi aniqlangandan so‘ng, favqulodda sayohat hujjati diplomatik yoki konsullik vakolatxonalari tarafidan 7 (yetti) kalendar kun ichida bepul rasmiylashtiriladi va mazkur hujjat faqat tegishli Tomon hududiga sayohat qilish uchun ishlatiladi.
6. Basharti vakolatli diplomatik yoki konsullik vakolatxonasi sayohat hujjatini 7 (yetti) kalendar kun ichida rasmiylashtirmasa, u “Qaytarish uchun Yevropa sayohat hujjati”ni qabul qilgan deb hisoblanadi.

17-modda

Readmissiya bo‘yicha muddatlar

1. Basharti Tomonlarning vakolatli organlari muayyan ish bo‘yicha boshqacha tarzda kelishib olmagan bo‘lsalar, So‘ralayotgan Tomon tarafidan readmissiyaga rozilik berilgan shaxslarning topshirilishi So‘rayotgan Tomon ushbu rozilikni olgan kundan boshlab 30 (o‘ttiz) kalendar kun ichida amalga oshiriladi.

2. Mazkur moddaning 1-bandida nazarda tutilgan muddat, readmissiya qilinishi lozim bo'lgan shaxsning jiddiy kasalligi, So'rayotgan Tomon davlati hududida bunday shaxsning yashash joyini o'z vaqtida aniqlashning imkoni bo'lmashligi yoki qaytarishni qiyinlashtiradigan boshqa to'siqlar kabi qaytarilishiga obyektiv ravishda to'sqinlik qiladigan holatlar sababli qaytarilishi imkoni bo'lmasa, uzaytiriladi.

18-modda

O'tkazish tartibi va transport vositalari

1. Tomonlarning o'z fuqarolari, uchinchi davlat fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning qaytarilishi, qoida tariqasida, havo orqali amalga oshiriladi, biroq alohida holatlarda va zarur bo'lgan taqdirda boshqa transport vositalari orqali ham amalga oshirilishi mumkin.
2. Havo orqali qaytarish Tomonlarning aviakompaniyalaridan yoki So'rayotgan Tomonning xavfsizlik xodimlaridan foydalanish bilan cheklanmaydi. Qaytarish doimiy va charter reyslari orqali amalga oshirilishi hamda to'g'ridan-to'g'ri reyslar va tranzit reyslarni o'z ichiga olishi mumkin.
3. Havo orqali qaytarish faoliyatlari muayyan ish sharoitlari talab qilgan va Tomonlarning amaldagi qonunlari hamda tartib-taomillariga muvofiq holatlarda, vakolatli tarzda tayinlangan xodimlar, shu jumladan, biroq ular bilan cheklanmagan holda, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, tibbiyot xodimlari, tarjimonlar yoki boshqa kuzatuvchilar tarafidan kuzatilishi mumkin.

19-modda

Readmissiyada xatolik

So'rayotgan Tomon, basharti tegishli shaxs topshirilganidan so'ng 6 (olti) oy ichida mazkur Bitimning 13 yoki 14-moddalarida belgilangan talablar bajarilmaganligini aniqlasa, So'ralayotgan Tomon tarafidan readmissiya qilingan har qanday shaxsni qayta qabul qiladi. Bunday holatlarda mazkur Bitimning 15 va 16-moddalaridagi protsessual qoidalar *mutatis mutandis* qo'llaniladi va So'ralayotgan Tomon qaytarib olinishi lozim bo'lgan shaxsning shaxsi va fuqaroligiga oid barcha mavjud ma'lumotlarni taqdim etadi.

20-modda

Tranzit tamoyillari

1. So'ralayotgan Tomon uchinchi davlat fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning tranzitiga, basharti bunday shaxslarning boshqa tranzit davlatlar hududi orqali keyingi sayohati va manzil davlatiga qabul qilinishi kafolatlangan bo'lsa, ruxsat beradi.

2. So‘ralayotgan Tomon quyidagi hollarda tranzitni rad etishi mumkin:

a. basharti uchinchi davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs manzil davlatida yoki boshqa tranzit davlatda qiynoqqa solinish, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazoga duchor bo‘lish, o‘lim jazosi yoki irqiy kelib chiqishi, dini, millati, ma‘lum bir ijtimoiy guruhga mansubligi yoki siyosiy qarashlari sababli ta‘qib ostiga olinish xavfi mavjud bo‘lsa; yoxud

b. basharti uchinchi davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs So‘ralayotgan Tomon davlatida yoki boshqa tranzit davlatda jinoiy javobgarlikka tortilishi yoki jazolanishi mumkin bo‘lsa; yoki

c. So‘ralayotgan Tomon davlatining jamoat salomatligini himoya qilish, ichki xavfsizlik, jamoat tartibi yoki boshqa milliy manfaatlariga asosan.

3. So‘ralayotgan Tomon, basharti mazkur moddaning 2-bandida nazarda tutilgan va tranzit faoliyatiga to‘sqinlik qiladigan holatlar keyinchalik yuzaga kelsa yoki aniqlansa yoxud boshqa tranzit davlatlar hududi orqali keyingi sayohat yoxud manzil davlatiga qabul qilinishining kafolati yo‘qolgan bo‘lsa, berilgan har qanday ruxsatnomasini bekor qilishi mumkin. Bunday holda So‘ralayotgan Tomon uchinchi davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsni darhol qayta qabul qiladi.

21-modda

Tranzit tartibi

1. Tranzit to‘g‘risidagi ariza So‘ralayotgan Tomonning vakolatli organiga, rejalashtirilgan tranzit boshlanishidan kamida 15 (o‘n besh) kalendar kun oldin yozma ravishda yuborilishi va quyidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishi lozim:

- a. tranzit turi (rejalashtirilgan yoki charter reysi, quruqlik yoki havo orqali), tranzit yo‘nalishi, basharti mavjud bo‘lsa boshqa barcha tranzit davlatlar va manzil davlati;
- b. tranzit qilinishi lozim bo‘lgan shaxsga oid barcha mavjud ma‘lumotlar (ism, familiya, qizlik familiyasi, ishlatiladigan boshqa ismlar/boshqacha tanilgan ismlar yoki taxalluslar, tug‘ilgan sana va iloji bo‘lsa tug‘ilgan joy, fuqaroligi, tili, sayohat hujjatlarining turi va raqami);
- c. belgilangan kirish joyi, topshirish vaqti va kuzatuvchi xodimlardan foydalanish ehtimoli;
- d. basharti taalluqli bo‘lsa, jismoniy/tibbiy holat to‘g‘risida ma‘lumot (masalan, yuqumli aniqlanadigan kasalliklar), oldingi muvaffaqiyatsiz deportatsiya urinishlari, uchinchi davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning sudlanganlik tarixi;
- e. So‘ralayotgan Tomonning fikriga ko‘ra, mazkur Bitimning 20-moddasi 1-bandida ko‘rsatilgan shartlar bajarilganligi va mazkur Bitimning 20-moddasi 2-bandiga binoan tranzitni rad etish asoslarining mavjud emasligi haqidagi bayonot.

Mazkur moddaga muvofiq tranzit to'g'risidagi ariza mazkur Bitimga 6-ilova sifatida birlashtirilgan namuna bo'yicha taqdim etiladi.

2. So'ralayotgan Tomonning vakolatli organlari tranzit to'g'risidagi arizaga, ariza olinganidan so'ng 10 (o'n) kalendar kun ichida yozma ravishda javob beradilar va So'ralayotgan Tomonning vakolatli organlarini tranzit faoliyatiga rozilik berilganligi, kirish joyi va shaxsni topshirishning rejalashtirilgan vaqti tasdiqlanishi yoki tranzit rad etilganligi va rad etish sabablari to'g'risida xabardor qiladilar.

3. Basharti tranzit havo orqali amalga oshirilsa, tranzit qilinishi lozim bo'lgan shaxs va mumkin bo'lgan kuzatuvchi xodimlar tranzit vizasini olish majburiyatidan ozod qilinadi.

4. Basharti shaxslarning havo orqali tranzitining imkoni bo'lmasa, So'ralayotgan Tomonning vakolatli organlari tranzit qilinishi lozim bo'lgan shaxsni So'ralayotgan Tomonning vakolatli organlariga chegara o'tish punktida topshiradilar. So'ralayotgan Tomonning vakolatli organlari shaxsning manzil davlatiga yoki boshqa tranzit davlatiga topshirilishini ta'minlaydilar.

5. So'ralayotgan Tomon rejalashtirilgan tranzitdan kamida 1 (bir) ish kuni oldin, topshirish vaqti va/yoki rejalashtirilgan kirish joyidagi o'zgarishlar to'g'risida So'ralayotgan Tomonni iloji boricha tezroq yozma ravishda xabardor qilishi kerak. So'ralayotgan Tomon o'zgartirilgan topshirish vaqtini va/yoki o'zgartirilgan kirish joyini imkon qadar tez tasdiqlaydi.

6. Vakolatli organ kuzatuvchi xodimlar to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni taqdim etadi: ism, familiya; kuzatuvchi xodimlarning unvoni/darajasi, basharti mavjud bo'lsa; pasport turi, raqami, berilgan sanasi va amal qilish muddati; reys raqami; kelish va ketish sanasi hamda vaqti.

7. Kuzatuvchi xodimlar kuzatib borish bilan bog'liq readmissiya yoki tranzit jarayonida istalgan vaqtda o'zini tanishtira olishi, o'z vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlarni va readmissiya yoki tranzit bilan bog'liq vazifalari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishi lozim.

8. So'ralayotgan Tomonning kuzatuvchi a'zolari So'ralayotgan Tomonning tranzitga roziligini tasdiqlovchi hujjatning nusxasini olib yurishlari lozim.

9. So'ralayotgan Tomonning kuzatuvchi a'zolari So'ralayotgan Tomon davlatining hududida davlat hokimiyati vakolatlarini amalga oshira olmaydilar va qurollangan bo'lishlari mumkin emas. Kuzatuvchi xodimlar faqat o'zini himoya qilish va favqulodda yordam ko'rsatish holatlarida harakat qilishlari mumkin. Kuzatuvchi xodimlar tranzit tartib-taomilini fuqarolik kiyimida amalga oshiradilar va xavfsizlik vositalarini faqat o'zini himoya qilish va favqulodda yordam ko'rsatish maqsadida olib yurishlari mumkin.

10. So'ralayotgan Tomonning vakolatli organlari, o'zaro kelishuv asosida, So'ralayotgan Tomon hududida tranzit faoliyatini amalga oshirishda tegishli shaxsni qo'riqlash va shu maqsad uchun tegishli sharoitlar yaratish orqali ko'maklashadilar.

22-modda

Migratsiya, mobillik va readmissiya masalalari bo'yicha Qo'shma ishchi guruh

1. Har ikki Tomonning vakillaridan iborat Qo'shma ishchi guruh tuziladi. Qo'shma ishchi guruhi mazkur Bitimda belgilangan qoidalarining bajarilishini nazorat qiladi, mazkur Bitimning bir xil qo'llanilishi uchun zarur bo'lgan ijro tartiblarini tavsiya etadi va zarur hollarda, uni takomillashtirish bo'yicha barcha tegishli takliflarni muhokama qiladi.

2. Qo'shma ishchi guruh har ikki Tomonning xohishiga ko'ra zarur deb topilgan hollarda Tomonlardan birining hududida navbatma-navbat yig'iladi. Har ikki Tomon kelishib olgan taqdirda, yig'ilishlar videokonferensiya yoki boshqa virtual formatlar orqali ham o'tkazilishi mumkin. Qo'shma ishchi guruhning kun tartibi va tarkibi har bir yig'ilish uchun o'zaro maslahatlashuvlar asosida belgilanadi.

23-modda

Vakolatlar

Har ikki Tomon diplomatik kanallar orqali bir-birini mazkur Bitim qoidalarini amalga oshirish uchun mas'ul vakolatli organlar, tegishli vakolatli organlarning aloqa ma'lumotlari va ularga keyinchalik kiritilgan har qanday o'zgarishlar to'g'risida xabardor qiladi. Vakolatli organlar to'g'risidagi ma'lumotlardagi o'zgarishlar mazkur Bitimning 33-moddasiga muvofiq rasmiy o'zgartirish sifatida qaralmaydi.

24-modda

Chegara o'tish punktlari

1. Bitimni amalga oshirish uchun quyidagi chegara o'tish punktlaridan foydalaniladi:

- O'zbekiston Respublikasi uchun: Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti;
- Avstriya Respublikasi uchun: Vena xalqaro aeroporti.

2. Har bir Tomon ushbu moddaning 1-bandida ko'rsatilgan chegara o'tish punktlari ro'yxatiga kiritilgan har qanday o'zgarishlar to'g'risida boshqa Tomonni asossiz kechiktirishlarsiz xabardor qiladi.

3. Basharti readmissiya yoki tranzit qilinishi lozim bo'lgan shaxsni havo orqali tashishning imkoni bo'lmasa, Tomonlarning vakolatli organlari har bir muayyan topshirish holatida So'ralayotgan Tomon davlati chegarasidagi chegara o'tish punkti to'g'risida kelishadilar.

25-modda

Ilovalar

1. Ilovalar mazkur Bitimning ajralmas qismi hisoblanadi va 33-moddaning 3-bandiga muvofiq o'zgartirilishi yoki to'ldirilishi mumkin.

2. Mazkur moddaning 1-bandiga muvofiq ilovalarga kiritilgan o'zgartirish yoki qo'shimchalar ijobiy diplomatik nota olinganidan so'ng 15 (o'n besh) kalendar kun o'tgach kuchga kiradi.

26-modda

Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish

1. Mazkur Bitim maqsadlari uchun “shaxsga doir ma'lumotlar” tushunchasi aniqlangan yoki aniqlanishi mumkin bo'lgan jismoniy shaxsga (keyingi o'rinlarda “ma'lumotlar subyekti” deb ataluvchi) oid barcha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi; aniqlanishi mumkin bo'lgan shaxs bu bevosita yoki bilvosita, xususan, identifikatsiya raqami kabi identifikator yordamida yoki mazkur jismoniy shaxsning jismoniy, fiziologik, aqliy, iqtisodiy, madaniy yoki ijtimoiy shaxsiga xos bo'lgan bir yoki bir nechta omillar asosida aniqlanishi mumkin bo'lgan shaxsdir.

2. Tomonlar o'rtasida shaxsga doir ma'lumotlarni (keyingi o'rinlarda “ma'lumotlar” deb ataluvchi) o'zaro uzatish tegishli milliy qonunchilikka muvofiq, uzatuvchi organ tarafidan belgilangan har qanday shartlarga rioya etilgan holda va ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan hamda avtomatlashtirilmagan vositalar orqali ishlov berishga nisbatan qo'llaniladigan quyidagi tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

- a. Uzatilgan ma'lumotlar qonuniy va adolatli tarzda to'planadi hamda ishlov beriladi. Ular muayyan, aniq ifoda etilgan va qonuniy maqsadlar uchun to'planadi hamda ushbu maqsadlarga mos kelmaydigan tarzda ishlov berilmaydi. Ular ishlov berish maqsadlari nuqtai nazaridan yetarli, tegishli va ortiqcha bo'lmasligi lozim.
- b. Irqiy yoki etnik kelib chiqishni, siyosiy qarashlari, diniy yoki boshqa e'tiqodlarni, kasaba uyushmasiga a'zolikni, genetik ma'lumotlarni, shaxsni yagona tarzda identifikatsiya qilish maqsadidagi biometrik ma'lumotlarni, salomatlikka oid ma'lumotlarni yoki shaxsning jinsiy hayoti yoki jinsiy yo'nalishiga oid ma'lumotlarni oshkor etuvchi ma'lumotlar faqat ishlov berish mutlaqo zarur bo'lgan taqdirdagina ishlov berilishi mumkin hamda bundan tashqari milliy amaldagi qonunchilik ma'lumotlar subyektining huquqlari va erkinliklarini himoya qilish uchun yetarli kafolatlar belgilanganligini ta'minlashi shart. Xuddi shu qoida jinoiy faoliyatga shubha qilish, jinoiy sudlanganlik va profilaktik choralar kabi jinoiy huquqbuzarliklar bilan bog'liq ma'lumotlarga nisbatan ham qo'llaniladi.
- c. Uzatilgan ma'lumotlar uzatuvchi organ tarafidan oldindan yozma ravishda ruxsat berilmasdan uzatish maqsadlaridan boshqa maqsadlar uchun ishlov berilishi yoki keyingi topshirilishi mumkin emas. Bunday ruxsat faqat ushbu boshqa maqsadlar uchun ishlov berish yoki keyingi topshirish uzatuvchi Tomonning milliy amaldagi qonunchiligi bilan ruxsat etilgan taqdirdagina berilishi mumkin. Tegishli shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (ism, familiya, tegishli hollarda avvalgi ism, epitetlar yoki laqablar, sinonimlar yoki taxallus ismlar, tug'ilgan sanasi va joyi, jinsi, hozirgi va avvalgi fuqaroliklari);
- d. Uzatilgan ma'lumotlar quyidagi hollarda zudlik bilan o'chiriladi yoki tuzatiladi:
 - i. ma'lumotlar noto'g'ri ekanligi ma'lum bo'lganda, yoki
 - ii. uzatuvchi organ uzatilgan ma'lumotlar noqonuniy tarzda olingan yoki uzatilganligini yoxud qonuniy tarzda uzatilgan ma'lumotlar uzatuvchi Tomonning milliy amaldagi qonunchiligiga muvofiq keyinchalik o'chirilishi zarurligini xabardor qilganda, yoki

- iii. ma'lumotlar uzatilish maqsadi uchun endi zarur bo'lmasa, bundan ma'lumotlarni boshqa maqsadlarda ishlov berishga aniq ruxsat berilgan hollar mustasno; yoki
- iv. mazkur Bitim kuchini yo'qotgan taqdirda.
- e. Uzatuvcchi organninig so'roviga binoan, qabul qiluvchi organ qabul qilingan ma'lumotlarga har qanday ishlov berish va shu orqali erishilgan natijalar to'g'risida ma'lumot taqdim etadi.
- f. Uzatuvcchi organ uzatilgan ma'lumotlarning aniqligi va dolzarbligini ta'minlaydi. Uzatuvcchi organ, bundan tashqari, uzatishning uzatish maqsadlari nuqtai nazaridan zarurligini va mutanosibligini ta'minlaydi hamda tegishli milliy amaldagi qonunchilik bilan belgilangan uzatishga qo'yilgan har qanday cheklavlarga rioya qiladi. Noto'g'ri ma'lumotlar yoki noqonuniy uzatilgan ma'lumotlar uzatilganligi yoxud qonuniy tarzda uzatilgan ma'lumotlar uzatuvcchi Tomonning milliy amaldagi qonunchiligiga muvofiq keyinchalik o'chirilishi zarurligi ma'lum bo'lganda, qabul qiluvchi organ zudlik bilan xabardor qilinadi. Qabul qiluvchi organ zarur tuzatish yoki o'chirishni zudlik bilan amalga oshiradi.
- g. Basharti qabul qiluvchi organda uzatilgan ma'lumotlar noto'g'ri yoki o'chirilishi zarur deb hisoblashga asos bo'lsa, uzatuvcchi organ zudlik bilan xabardor qilinadi.
- h. Tomonlar ma'lumotlar faqat uzatish jarayonida uchinchi shaxslar tarafidan ruxsatsiz kirish yoki o'zgartirishdan yetarli darajada himoyani kafolatlaydigan aloqa vositalari orqali uzatilishini ta'minlaydilar. Uzatish usuli ma'lumotlarning maxfiylik darajasiga mos kelishi lozim. Tomonlar ishlatiladigan aloqa vositalariga kirishni faqat vakolatli shaxslar bilan cheklanishini ta'minlaydilar va avtomatlashtirilgan ishlov berish tizimlaridagi ma'lumotlarga to'g'ridan-to'g'ri kirish huquqi bermaydilar.
- i. Qabul qiluvchi organ uzatilgan ma'lumotlarni ruxsatsiz yoki noqonuniy ishlov berishdan, shuningdek tasodifiy yo'qotish, tasodifiy o'chirish yoki tasodifiy yo'q qilishdan himoyani o'z ichiga olgan holda ma'lumotlarning yetarli xavfsizligini ta'minlaydigan tarzda ishlov berish majburiyatini oladi.
- j. Uzatuvcchi organ va qabul qiluvchi organ har bir uzatish, keyingi uzatish, qabul qilish va ma'lumotlarni o'chirish to'g'risida yozuv yuritadi. Mazkur yozuvlar uzatish va o'chirishning maqsadini va vaqtini, uzatuvcchi va qabul qiluvchi organlarni, shuningdek, so'rov yoki uzatishni amalga oshirgan va buyurgan mansabdor shaxslarning identifikatorini o'z ichiga oladi. Yozuvlar faqat amaldagi ma'lumotlarni himoya qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida ishlatiladi. Yozuvlar ruxsatsiz foydalanish va noto'g'ri foydalanishning boshqa shakllaridan himoya qilish uchun tegishli choralar bilan muhofaza qilinadi va 3 (uch) yil davomida saqlanadi. Ushbu muddatdan so'ng yozuvlar hech qanday kechiktirishsiz o'chirib tashlanadi.
- k. Ma'lumotlarni buzishga yo'l qo'yilgan taqdirda, qabul qiluvchi organ zudlik bilan tegishli zarar bartaraf etish choralari ko'radi. U jamoat xavfsizligi yoki milliy xavfsizlikka zarar yetkazilmaydigan taqdirda uzatuvcchi organi xabardor qiladi.
- l. Har bir ma'lumotlar subyekti o'z shaxsini tasdiqlagandan so'ng, ma'lumotlarga ishlov berish uchun mas'ul organidan mazkur Bitim doirasida uzatilgan yoki ishlov berilgan

har qanday ma'lumotlar, ularning manbalari, har qanday oluvchilar yoki oluvchilar toifalari, ko'zlangan maqsad va huquqiy asoslar to'g'risidagi ma'lumotni yetarli, tushunarli shaklda, bepul va asossiz kechiktirishsiz olish huquqiga ega bo'ladi.

3. Bundan tashqari, har bir ma'lumotlar subyekti noto'g'ri ma'lumotlarni tuzatish va noqonuniy ishlov berilgan ma'lumotlarni o'chirish huquqiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, Tomonlar har bir ma'lumotlar subyekting ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha huquqlari buzilgan taqdirda qonun asosida tashkil etilgan mustaqil va xolis sud yoki tribunal oldida samarali shikoyat berish huquqiga ega bo'lishini, shuningdek, ma'lumotlar subyektiga sud oldida samarali himoya vositalarini va zarur hollarda, kompensatsiya olish imkoniyati berilishini ta'minlaydilar. Ushbu huquqlarni amalga oshirish tartibiga oid batafsil qoidalar ma'lumotlar subyekti o'z huquqlarini talab qiladigan Tomon tarafidan tegishli milliy amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Ushbu huquqlarni talab qilish bo'yicha so'rov tushgan taqdirda, tegishli ma'lumotlarni o'z ixtiyorida tutuvchi organ qaror qabul qilinishidan oldin uzatuvchi organga fikr bildirish imkoniyatini beradi.

27-modda

Til

Boshqacha tarzda kelishilmagan bo'lsa, Tomonlar ingliz tilidan foydalanadilar.

28-modda

Xarajatlar

1. Boshqacha tarzda kelishilmagan bo'lsa, Tomonlar mazkur Bitimni amalga oshirishdan kelib chiqadigan xarajatlarni o'z zimmasiga oladilar.

2. Mazkur Bitimga muvofiq readmissiya va tranzit faoliyatlari bilan bog'liq manzil davlati chegarasiga qadar yuzaga keladigan barcha transport xarajatlari So'rayotgan Tomon tarafidan qoplanadi.

29-modda

Nizolarni hal qilish tartibi

Mazkur Bitimni talqin qilish yoki qo'llash bilan bog'liq nizolar tegishli vakolatli organlar tarafidan hal qilinadi. Basharti buni amalga oshirishning imkoni bo'lmasa, Migratsiya, mobillik va readmissiya masalalari bo'yicha Qo'shma ishchi guruh ushbu masalani ko'rib chiqadi. Zarur hollarda, nizo diplomatik kanallar orqali hal qilinadi.

30-modda

Boshqa xalqaro shartnomalar bilan munosabat

1. Mazkur Bitim Tomonlarning ular ishtirokchi bo'lgan boshqa xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlariga daxl qilmaydi.
2. Mazkur Bitim qoidalari 2001-yil 2-noyabrda imzolangan O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Avstriya Respublikasi Federal Hukumati o'rtasida xavfsizlik va jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik qilish to'g'risidagi Bitim qoidalariga daxl qilmaydi.

31-modda

Qo'llaniladigan huquq

1. Tomonlar ushbu Bitimda nazarda tutilgan barcha choralarni o'zlarining amaldagi milliy qonunchiligiga muvofiq amalga oshiradilar.
2. Mazkur Bitim Tomonlar o'rtasida o'zlarining tegishli vakolatlari doirasida, milliy qonunchiliklari, tartib-taomillari va resurslariga muvofiq hamda xalqaro qoidalar va standartlarga to'liq rioya qilgan holda migratsiya va mobillik sohasida sheriklikni belgilaydi.
3. Mazkur Bitim doirasida amalga oshiriladigan barcha harakatlar Tomonlarning tegishli xalqaro huquq normalariga muvofiq bo'lishi shart.

32-modda

Kuchga kirish

Mazkur Bitim Tomonlar diplomatik kanallar orqali bir-birini mazkur Bitimning kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan tegishli milliy talablarning bajarilganligi to'g'risida xabardor qilgan sanadan keyingi ikkinchi oyning birinchi kunida kuchga kiradi. Tegishli sana so'nggi xabarnoma olingan kun hisoblanadi.

33-modda

Bitimning amal qilish muddati, tugatilishi va o'zgartirilishi

1. Mazkur Bitim kuchga kirgan kundan boshlab nomuayyan muddat davomida amal qiladi.
2. Mazkur Bitim har qaysi Tomon tarafidan diplomatik kanallar orqali 6 (olti) oylik oldindan yozma shaklda yetkazilgan xabarnoma orqali tugatilishi mumkin. Bitimning bunday tugatilishi, bosharti Tomonlar boshqacha kelishib olmagan bo'lsalar, mazkur Bitimni amalga oshirish natijasida kelib chiqadigan Tomonlarning huquqlari va majburiyatlariga daxl qilmaydi.
3. Mazkur Bitimga Tomonlarning o'zaro roziligi bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. O'zgartirish va qo'shimchalar mazkur Bitimning ajralmas qismi hisoblanadigan va 32-modda bilan belgilangan tartibda kuchga kiradigan alohida bayonnomalar shaklida rasmiylashtiriladi.

Tegishli tartibda vakolatlangan quyida imzo chekuvchilar shunga guvohlik berib, mazkur Bitimni imzoladilar.

..... shahrida, ,
ikki asl nusxada, nemis, o'zbek va ingliz tillarida tuzildi, bunda barcha matnlar teng autentikdir.
Talqin qilishda tafovutlar yuzaga kelgan taqdirda, ingliz tilidagi matn ustuvor hisoblanadi.

**Avstriya Federal
Hukumati nomidan**

**O'zbekiston Respublikasi
Hukumati nomidan**

**Avstriya Federal Hukumati
bilan
O‘zbekiston Respublikasi Hukumati
o‘rtasida
migratsiya va mobillik bo‘yicha sheriklik to‘g‘risidagi
Bitimga 1-ilova**

Fuqarolikni tasdiqlovchi umumiy hujjatlar ro‘yxati

(mazkur Bitimning 15-moddasi 1-bandiga muvofiq)

Avstriya Respublikasi uchun:

- Avstriyaning har qanday turdagi pasportlari (milliy pasportlar, diplomatik pasportlar, xizmat pasportlari va favqulodda pasportlar);
- Avstriya tomonidan berilgan sayohat hujjati;
- Shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar (shu jumladan, vaqtinchalik shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar);
- Harbiy guvohnomalar;
- Fuqarolikni aniq ko‘rsatuvchi yoki fuqarolikka oid ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan boshqa rasmiy hujjatlar.

O‘zbekiston Respublikasi uchun:

- diplomatik pasport;
- O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti;
- O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik pasporti;
- O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasporti;
- 16 (o‘n olti) yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma;
- O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining ID-kartasi;
- O‘zbekiston Respublikasiga qaytish guvohnomasi.

Avstriya Federal Hukumati
bilan
O‘zbekiston Respublikasi Hukumati
o‘rtasida
migratsiya va mobillik bo‘yicha sheriklik to‘g‘risidagi
Bitimga 2-ilova

Fuqarolikni prima facie tasdiqlash uchun umumiy hujjatlar ro‘yxati

(mazkur Bitimning 15-moddasi 2-bandiga muvofiq)

- mazkur Bitimning 1-ilovasida ko‘rsatilgan har qanday hujjatning fotonusxalari;
- fuqarolik to‘g‘risidagi guvohnoma yoki uning fotonusxasi;
- dengizchining ro‘yxatga olish kitobi yoki uning fotonusxasi;
- haydovchilik guvohnomasi yoki uning fotonusxasi;
- tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma yoki uning fotonusxasi;
- fuqarolikni ko‘rsatuvchi yoki fuqarolikni taxmin qilishga asos beruvchi har qanday rasmiy hujjat yoki uning fotonusxasi;
- korporativ (kompaniya) identifikatsiya kartasi yoki uning fotonusxasi;
- guvohlarning bayonotlari;
- tegishli shaxsning bayonoti;
- harbiy xizmat guvohnomasi, harbiy xizmat ma’lumotnomasi, harbiy xizmat kitobi, harbiy identifikatsiya hujjati yoki ularning fotonusxalari;
- Tomonlar davlatlarining fuqaroligini aniqlashga yordam berishi mumkin bo‘lgan boshqa har qanday hujjat;
- So‘ralayotgan Tomon tarafidan, so‘rov asosida, tegishli shaxs bilan o‘tkazilgan intervyu natijasi;
- barmoq izlari yoki boshqa biometrik ma’lumotlar;
- tegishli shaxs gaplashadigan til, shuningdek har qanday rasmiy imtihon natijalari.

Avstriya Federal Hukumati
bilan
O‘zbekiston Respublikasi Hukumati
o‘rtasida
migratsiya va mobillik bo‘yicha sheriklik to‘g‘risidagi
Bitimga 3-ilova

Uchinchi davlat fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni readmissiya qilish
asoslarini tasdiqlovchi hujjatlar ro‘yxati

(Mazkur Bitimning 16-moddasi 1-bandiga muvofiq)

- So‘ralayotgan Tomon davlati tarafidan berilgan amaldagi viza va/yoki yashashga ruxsat beruvchi hujjat;
- Shaxsning sayohat hujjatida So‘ralayotgan Tomon davlatining kirish/chiqish shtamlari yoki kirish/chiqish bo‘yicha boshqa dalillar;
- Shaxsning So‘ralayotgan Tomon davlatining hududidan So‘rayotgan Tomon davlatining hududiga bevosita yo‘l olganligini tasdiqlovchi xalqaro avia, temir yo‘l yoki avtobus chiptalari;
- Shaxsning So‘ralayotgan Tomon davlatining hududidan So‘rayotgan Tomon davlatining hududiga bevosita yo‘l olganligini tasdiqlovchi avia, temir yo‘l yoki avtobus yo‘lovchilar ro‘yxati;
- Shaxsning So‘rayotgan Tomon davlatining hududiga So‘ralayotgan Tomon davlatining hududidan bevosita kirganligini tasdiqlashi mumkin bo‘lgan So‘rayotgan Tomonning chegara organlari xodimlari tarafidan berilgan rasmiy bayonotlar;
- O‘zbekiston Respublikasi uchun – fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga berilgan biometrik sayohat hujjati;
- Avstriya Respublikasi uchun – fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga berilgan sayohat hujjati;
- Avstriya Respublikasi uchun – Viza axborot tizimi (VIS)da qidiruv natijasida aniqlangan shaxsni tasdiqlash ma‘lumotlari.¹

¹ Yevropa Parlamenti va Kengashining 2008-yil 9-iyulgagi qisqa muddatli vizalar bo‘yicha A‘zo davlatlar o‘rtasida ma‘lumot almashinuvi va Viza axborot tizimi (VIS) to‘g‘risidagi 767/2008-sonli (YeIK) Reglamenti (VIS Reglamenti), OJ L 218, 13.08.2008, 60-bet, unga kiritilgan so‘nggi o‘zgartirishlarga muvofiq Yevropa Ittifoqining 2226/2017-sonli Reglamenti bilan (OJ L 327, 09.12.2017, 20-bet) o‘zgartirilgan tahriri.

Avstriya Federal Hukumati
bilan
O‘zbekiston Respublikasi Hukumati
o‘rtasida
migratsiya va mobillik bo‘yicha sheriklik to‘g‘risidagi
Bitimga 4-ilova

Uchinchi davlat fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni readmissiya qilish
asoslarini bilvosita isbotlovchi hujjatlar ro‘yxati

(mazkur Bitimning 16-moddasi 2-bandiga muvofiq)

- mazkur Bitimning 3-ilovasida ko‘rsatilgan har qanday hujjatning fotonusxalari;
- xalqaro chiptalar;
- har qanday turdagi hujjatlar, sertifikatlar va hisob-kitoblar (masalan, mehmonxona hisoblari, shifokor/tish shifokori qabul kartalari, davlat yoki xususiy muassasalarga kirish kartalari, avtomobil ijarasi shartnomalari, kredit karta kvitansiyalari va boshqalar), basharti ular tegishli shaxsning So‘ralayotgan Tomon davlatining hududida bo‘lganligini aniq ko‘rsatsa;
- sud yoki ma‘muriy jarayonlarda tegishli shaxs tarafidan berilgan rasmiy bayonot;
- tegishli shaxs chegarani kesib o‘tganligini tasdiqlashi mumkin bo‘lgan guvohning rasmiy bayonoti;
- tegishli shaxs kuryer yoki sayohat agentligi xizmatlaridan foydalanganligini ko‘rsatuvchi ma‘lumotlar.

Avstriya Federal Hukumati
bilan
O‘zbekiston Respublikasi Hukumati
o‘rtasida
migratsiya va mobillik bo‘yicha sheriklik to‘g‘risidagi
Bitimga 5-ilova

(Gerb)

.....
.....
.....
(So‘rayotgan Tomonning vakolatli organi
nomi)

Havola:

.....
.....
.....
(So‘ralayotgan Tomonning vakolatli organi
nomi)

Avstriya Federal Hukumati
bilan
O‘zbekiston Respublikasi Hukumati
o‘rtasida
migratsiya va mobillik bo‘yicha sheriklik to‘g‘risidagi
Bitimning 15-moddasiga muvofiq
READMISSIYA TO‘G‘RISIDA ARIZA

.....

A. SHAXSGA OID MA'LUMOTLAR

1. To‘liq ism (famiyani tagiga chizing):


.....

2. Tug‘ilgan paytdagi ism:

.....

3. Tug‘ilgan sana va joyi:

.....



4. Jinsi va tashqi belgilar (bo‘yi, ko‘z rangi, ajralib turuvchi belgilari va boshqalar):

.....

5. Taxalluslar (avvalgi ismlar, ishlatgan boshqa ismlar yoki tanilgan nomlar):

.....

6. Fuqaroligi va tili:

.....

7. Fuqarolik holati: () turmush qurgan () yolg‘iz () ajrashgan () beva/boydoq

Basharti turmush qurgan bo‘lsa, turmush o‘rtog‘ining ismi:

.....

Farzandlari (basharti mavjud bo‘lsa) ismi va yoshi:

.....

.....

.....

.....

8. So‘rayotgan Tomonda oxirgi manzili:

.....
.....
B. TURMUSH O'RTOG'IGA OID MA'LUMOTLAR (BASHARTI TALAB ETILSA)

1. To'liq ism (familiyani tagiga chizing):

.....
.....

2. Tug'ilgan paytdagi ism:

.....
.....

3. Tug'ilgan sana va joyi:

.....
.....

4. Jinsi va tashqi belgilar (bo'yi, ko'z rangi, ajralib turuvchi belgilari va boshqalar):

.....

5. Taxalluslar (avvalgi ismlar, ishlatilgan/ma'lum bo'lgan boshqa ismlar):.....

6. Fuqaroligi va tili:

.....

C. FARZANDLARGA OID MA'LUMOTLAR (BASHARTI TALAB ETILSA)

1. To'liq ism (familiyani tagiga chizing):

.....

2. Tug'ilgan sana va joyi:

.....

3. Jinsi va jismoniy tavsifi (bo'yi, ko'z rangi, farqlovchi belgilar va boshqalar):

.....
.....

4. Fuqaroligi va tili:

.....

D. QAYTARILISHI LOZIM BO'LGAN SHAXSGA OID MAXSUS HOLATLAR

1. Sog'lig'i holati

(masalan: maxsus tibbiy parvarish haqida ma'lumot; yuqumli kasallikning lotincha nomi):

.....

2. Ma'lum xavfli shaxs ekanligi haqida ma'lumot

(masalan: og'ir jinoyatda gumon qilinishi; agressiv xulq):

.....

E. QO'LLAB-QUVVATLAYDIGAN DALILLAR ILOVA QILINADI

1.

(Pasport raqami)

(Berilgan sana va joyi)

.....

(Beruvchi organ)

(Amal qilish muddati)

2.

(Shaxsni tasdiqlovchi hujjat raqami)

(Berilgan sana va joyi)

.....

(Beruvchi organ)

(Amal qilish muddati)

3.

(Haydovchilik guvohnomasi raqami)

(Berilgan sana va joyi)

.....

(Beruvchi organ)

(Amal qilish muddati)

4.

(Boshqa rasmiy hujjat raqami)

(Berilgan sana va joyi)

.....

(Beruvchi organ)

(Amal qilish muddati)

F. INTERVYU O'TKAZISH / SAYOHAT HUJJATI BERISH TO'G'RISIDA SO'ROV

- 1-ilovada ko'rsatilgan hujjatlar taqdim etilmaganligi sababli fuqarolikni aniqlash uchun intervyu o'tkazish so'rovi.
- 1 va 2-ilovalardagi hujjatlar taqdim etilgan bo'lsa-da, ularning to'g'riligi shubha ostida bo'lgani sababli fuqarolikni aniqlash uchun intervyu o'tkazish so'rovi.

- 3 va 4-ilovalarga muvofiq uchinchi davlat fuqarolarini readmissiya qilishni osonlashtirish uchun intervyu o'tkazish so'rovi.
- Sayohat hujjatini / favqulodda sayohat hujjatini berish to'g'risida so'rov.

G. KUZATUVLAR

.....

.....

(Imzo) (Muhr/Tamg'a)

.....

.....

(So'rayotgan Tomonning vakolatli organi
 nomi)

(Joy va sana)

Reference:

.....

(So'ralayotgan Tomonning vakolatli organi
 nomi)

Avstriya Federal Hukumati
bilan
O‘zbekiston Respublikasi Hukumati
o‘rtasida
migratsiya va mobillik bo‘yicha sheriklik to‘g‘risidagi
Bitimga 6-ilova

(Gerb)

.....

.....

.....

(Joy va sana)

(So‘rayotgan Tomonning vakolatli organi
nomi)

Havola:

.....

.....

(So‘ralayotgan Tomonning vakolatli organi
nomi)

Avstriya Federal Hukumati
bilan
O‘zbekiston Respublikasi Hukumati
o‘rtasida
migratsiya va mobillik bo‘yicha sheriklik to‘g‘risidagi
Bitimning 21-moddasiga muvofiq
TRANZIT TO‘G‘RISIDAGI ARIZA

Tranzit qilinayotgan shaxsga oid umumiy ma’lumotlar

	familiya	ism	Jinsi (E/A)	tug‘ilgan sana	tug‘ilgan joy
1					
2					

	millati	sayohat hujjati raqami / turi / amal qilish muddati	uchinchi davlat tarafidan berilgan viza (basharti talab qilinsa)
1			
2			

Parvoz tafsilotlari

reys raqami	qayerdan	jo‘nash sanasi	jo‘nash vaqti	qayerga	kelish sanasi	kelish vaqti

Maxsus ma’lumotlar:

Tranzit qilinayotgan shaxs kuzatuvchi xodimlar tarafidan kuzatiladimi?	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo‘q	Kuzatuvchilar:
Tibbiy parvarish talab qilinadimi?	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo‘q	Basharti shunday bo‘lsa, ko‘rsating:

Yuqumli aniqlanadigan kasalliklar bormi?	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo‘q	Basharti shunday bo‘lsa, ko‘rsating:
Oldingi deportatsiya (chiqarib yuborish) urinishlari muvaffaqiyatsiz bo‘lganmi?	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo‘q	Basharti shunday bo‘lsa, sababini ko‘rsating:
Jinoiy sudlanganlik to‘g‘risida ma‘lumotingiz bormi?	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo‘q	Basharti shunday bo‘lsa, ko‘rsating*:

*Zarurat tug‘ilganda, quyidagi “Qo‘shimcha izohlar” bo‘limidan foydalaning..

Qo‘shimcha izohlar:

Klicken oder tippen Sie hier, um Text einzugeben.

So‘ralayotgan Tomonning qarori:

Tranzitga ruxsat berildi.	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo‘q
Basharti ruxsat berilmasa, asoslar:	
Ism / imzo / sana	

**Avstriya Federal Hukumati
bilan
O‘zbekiston Respublikasi Hukumati
o‘rtasida
migratsiya va mobillik bo‘yicha sheriklik to‘g‘risidagi
Bitimga 7-ilova**

**Yevropa Parlamenti va Kengashining 2016/1953-sonli Reglamentiga muvofiq,
noqonuniy bo‘lib kirgan uchinchi davlat fuqarolarini qaytarish uchun ishlatiladigan
Yevropa standart sayohat hujjati namunasi**

Quyidagi namuna, u qaysi tilda berilishidan qat’iy nazar, amal qiladi:



REPUBLIK ÖSTERREICH

Republic of Austria / République d'Autriche

European travel document for the return of illegally staying third-country nationals

Ausstellende Behörde:

Issuing authority / Autorité de délivrance:

Dok. Nr.:

Doc. No. / No. doc.:

Gültig für die einmalige Einreise von:

Valid for one journey from / Valable pour un seul voyage de:

Nach:

to / à:

Name: Klicken Sie hier, um Text einzugeben.

Name / Nom:

Vorname: Klicken Sie hier, um Text einzugeben.

Given name / Prénom:

Geburtsdatum: Klicken Sie hier, um Text einzugeben.

Date of birth / Date de naissance:

Geschlecht: Klicken Sie hier, um Text einzugeben.

Sex / Sexe:

Staatsangehörigkeit: Klicken Sie hier, um Text einzugeben.

Nationality / Nationalité:

Besondere Kennzeichen: Klicken Sie hier, um Text einzugeben.

Distinguishing marks / Signes particuliers:

Adresse im Heimatland (falls bekannt):

Address in the country of return (if known) / Adresse dans le pays de retour (si connue):

Ausstellungsort: Klicken Sie hier, um Text einzugeben.


Issued at / Lieu de délivrance:

Ausstellungsdatum: Klicken Sie hier, um Text einzugeben.

Issued on / Date de délivrance:

Unterschrift:

Signature / Signature:



Siegel/Stempel
Seal/Stamp
Joint/Timbre

